



Loyiha nomi: IL-402104474 – “Bolalar adabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish

Loyiha rahbari:

f.f.d., dots. Xamrakulova Xurshida Kuvvatovna.

E-mail: xamrakulova.xurshida@navoiy-uni.uz

Tel: +998998022745

Loyihaning maqsadi: Mazkur loyihada yaratilishi ko‘zda tutilgan elektron platforma va uning mobil ilovasi yosh avlodni kitobxonlikka keng jalb etish, mutolaa madaniyati va ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Qolaversa, fan-texnika asrida, zamonaviy texnologiyalar va internetning rivojlanishi badiiy adabiyotga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi. Lekin inson qaysi yoshda bo‘lishidan qat’i nazar hamisha ma’naviy ozuqaga, shaxsni kamol toptirish vositasi bo‘lgan adabiyotga ehtiyoj sezadi. Insonlarni kitobga, badiiy adabiyotga qaytarish uchun fan-texnika yutuqlaridan foydalanish zarurligini davr taqozo etmoqda. Loyiha natijasida yaratiladigan elektron platforma ayni maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Loyihaning qisqacha tavsifi: Elektron platforma o‘zbek bolalar adabiyoti namunalari, bolalar yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar: matnlar, video va audio yozuvlar, badiiy va hujjatli filmlar, multfilmlar, musiqiy asarlar, slaydlar, shuningdek, mumtoz adabiyot namunalari bolalar adabiyotiga oid asarlar, bolalar xalq og‘zaki ijodi namunalaridan iborat bo‘ladi. U bir vaqtning o‘zida muayyan yozuvchi hayoti va ijodi, tarjimai holiga oid ma’lumotlar, asarlari asosida ishlangan badiiy va hujjatli filmlar, multfilmlar, musiqiy asarlar va hokazolar haqida ma’lumot beradi. Ta’lim muassasalarida namunali darslar, mashg‘ulot va ma’ruzalarni onlayn tarzda namoyish etish imkoniyati yaratiladi.

Kutilayotgan natija: Loyiha yakunida keng turdagi va katta hajmdagi ma’lumotlarni jamlagan elektron platforma va uning mobil ilovasi yaratiladi. Elektron platformada istiqloq davri bolalar adabiyoti vakillari saralab olinadi va ularning asarlari tur va janrlariga ko‘ra ajratilib, joylashtiriladi. Bunda shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodi haqida hujjatli film va intervyular; badiiy asarlarning shoir va yozuvchilarning o‘zlari o‘qib bergan variantlari; bolalar adabiyoti vakillari ijodi asosida yaratilgan qo‘shiqlar, hujjatli va badiiy filmlar, multfilmlar namunalari joylashtiriladi. Loyiha natijalari badiiy adabiyotni keng xalq ommasi va yosh avlod orasida keng targ‘ib qilishga, mazmun-mohiyatini to‘laqonli yetkazishga, ularning ma’naviy olamini boyitishga, ijtimoiy faolligini oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, badiiy-estetik didi va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qo‘llanish doirasi: Elektron platforma nafaqat soha tadqiqotchilari, jamiyatning barcha qatlamidagi adabiyot ixlosmandlari, balki maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, bolalar ijodiyot markazlari uchun ham zarur. Undan oila davrasida, mahallada o‘tkaziladigan tadbirlarda, dars va mashg‘ulotlar jarayonida, sinfdan tashqari tadbirlarni tashkillashtirishda, turli adabiy kecha va seminarlarda foydalanish mumkin.

Amalga oshirish: 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan № IL-402104474 – “Bolalar adabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” innovatsion loyiha doirasida (697 305000 so‘m).